

VYETNAM TILIDAGI “CÁI” [kai] VA “CON” [kon] HISOB SO‘ZLARINING QIYOSIY TAHLILI

Qodirova Dilbarxon Mirzaxparovna

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Janubiy Osiyo tillari va adabiyoti oliy maktabi o‘qituvchisi

qodirova.dilbarxon@yandex.ru

ANNOTATSIYA

Hisob so‘zlar nafaqat vyetnam tili, balki boshqa dunyo tillarida, xususan turkiy tillarda ham mavjudligi aniqlangan. Biroq vyetnam tilida ularning o‘rni va ahamiyati juda kattadir. Mazkur so‘zlar tarjima jarayonida ob‘ektni kerakli kontekstga qarab, ma’no va mohiyatni to‘liq va tushinarli ifodalash - tasniflash uchun ishlatiladigan muhim so‘z yoki morfema bo‘lishiga qaramay, ular aniq bir tizimga tushirib o‘rganilmagan.

“Cái” [kai] va “con” [kon] hisob so‘zlari vyetnam tilida eng ko‘p qo‘llaniladigan hisob so‘zlardan bo‘lib, semantik jihatdan tadqiqi ko‘pgina tilshunoslarni e’tiborini tortgan mavzular sarasiga kiradi. Shu jumladan, vyetnam tilidagi hisob so‘zlarni o‘zbek vyetnamshunosligida alohida, qiyosiy tadqiq etish, o‘ziga xos xususiyatlari, ularni vujuda keltiruvchi omillar, “cái” va “con” hisob so‘zlarining semantikasi, o‘xshash va farqli tomonlari, grammatik tabiatini masalalarini tilning ichki qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda ilmiy-nazariy jihatdan tafsiflash, qo‘llanilishdagi o‘ziga xosliklar, istisnoli holatlarni aniqlash va tadqiq etish zarurati yuzaga keladi.

Kalit so‘zlar: klassifikator, hisob so‘z, cái, con, standart hisob so‘z, jonsiz narsalarni ko‘rsatuvchi hisob so‘z, sun’iy ob‘yektlarni ko‘rsatuvchi hisob so‘z, mavhum narsalarni ko‘rsatuchi hisob so‘z, harakatlanuvchi jonsiz narsalarni ko‘rsatuvchi hisob so‘z, dinamik sifatga ega bo‘lgan tabiiy hodisalarni ko‘rsatuvchi hisob so‘z.

ABSTRACT

It has been found that classifiers exist not only in Vietnamese but also in other languages of the world, particularly in Turkish languages. However, their role and significance in Vietnamese is very great. Although these words are important words or morphemes used in the translation process to fully and clearly express the meaning and essence of an object depending on the necessary context, they have not been studied in a specific system.

The classifiers "Cái" [kai] and "con" [kon] are frequently used classifiers in the Vietnamese language, and their semantic study is one of the topics that attracts the

attention of many linguists. In particular, it is necessary to conduct a separate comparative learning of Vietnamese classifiers in Uzbek Vietnamese studies, to scientifically and theoretically describe such issues as their specific features, their generating factors, semantics, similarities and differences, grammatical features of the classifiers "cái" and "con" based on the internal laws of the language, to identify and study the features and exceptional cases in use.

This article scientifically and theoretically studies the classifiers *cái* [kai] and *con* [kon], which are widely used to describe a large group of concrete and abstract objects, and also presents an approach and draws the necessary conclusions.

Key words: classifier, *cái*, *con*, standard classifiers, classifiers denoting inanimate objects, classifiers denoting artificial objects, classifiers denoting abstract objects, classifiers denoting moving inanimate objects, classifiers denoting natural phenomena with a dynamic feature.

KIRISH

Hozirgi vyetnam tilida matn tarjimasi, tahlili jarayonida fikrni aniq va tushinarli bayon etish uchun hisob so‘zlarni to‘g‘ri tanlash juda muhim hisoblanadi. Shu bois, vyetnam tilida mavjud hisob so‘zlarni tizimli ravishda leksik-semantik xususiyatlarini alohida tadqiq etish, miqdori va ma’nolarini izchil o‘rganib bayon etish maqsadida eng ko‘p qo‘llaniladigan hisob so‘zlar *cái* [kai] va *con* [kon] hisob so‘zlari tanlab olindi.

Turli soha va janrlarga oid asl manbalar taqiqi va tahlili til tizimidagi hisob so‘zlar, xususan “cái” [kai] va “con” [kon] hisob so‘zlarining ahamiyati va murakkabligini namoyon etadi. Shu maqsadda, tadqiqot mavzuimizning ob’yekti bo‘lgan *cái* [kai] va *con* [kon] hisob so‘zining foydalanish shakllari, grammatik xususiyatlarini leksik tadqiqi va semantik tahlilini amalga oshirish mukammal o‘rganish sari qo‘yilgan qadam hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mavzuni yoritishda umumiy tilshunoslikda, xususan, vyetnam tilshunosligida yaratilgan qator ilmiy-nazariy tadqiqotlar, vyetnam xalq ertaklari, hikoyalar, online matbuot maqolalaridan keng foydalangan holda, zamonaviy og‘zaki va yozma nutqda hisob so‘zlarining ahamiyati, jonli va jonsiz narsalarni ko‘rsatishda turli modellarni aniqlash maqsadida *cái* [kai] hamda *con* [kon] hisob so‘zlari ajratilib, semantik xususiyatiga ko‘ra ifodalanish hamda qo‘llanilish usullarining tadqiqi amalga oshiriladi. Xususan, hisob so‘zlearning mohiyatini tushinish, xususiyatlarini batafsil bayon etish va ularning amaliy ko‘rinishlarini o‘rganish maqsadida nazariy-tavsifiy tahlildan foydalanildi (Nguyễn Hữu Quỳnh. Ngữ pháp Tiếng Việt. [Vyvetnam tili

grammatikasi.]; Nguyễn Tài Cẩn. NGỮ PHÁP TIẾNG VIỆT: Tiếng – Từ ghép – Đoàn ngữ. [VYETNAM TILI GRAMMATIKASI: Bo‘g‘in – Murakkab so‘z – So‘z birikmalari]; Nguyễn, Tài Cẩn. (1975). Từ loại danh từ trong tiếng Việt hiện đại [Zamonaviy vyetnam tilida so‘z turkumlari]).

Cái [kai] hamda **con [kon]** hisob so‘zlarining tadqiqi yuzasidan diaxronik tahlilni amalga oshirish maqsadida qiyosiy-tarixiy, etimologik usullardan foydalanildi: (Ca dao tục ngữ - Từ điển ca dao tục ngữ Việt Nam Tuyển tập 200 câu tục ngữ về quan hệ gia đình. [Xalq qo'shiqlari va maqollari - Vietnam xalq qo'shiqlari va maqollari lug‘ati Oilaviy munosabatlar haqida 200 ta maqol to‘plami”; Hình ảnh con chó trong thành ngữ, tục ngữ Việt Nam [Vietnam iboralari va maqollarida it tasviri]; Từ điển Hán Nôm. Phần ba nét: 刀. TR. 196. [Xitoyxha-Milliy Yozuv: Nom. 刀 bo‘limi. 196-bet.);

Shuningdek **cái [kai]** hamda **con [kon]** hisob so‘zlarining struktural tahlilini amalga oshirish maqsadida, segmentatsiya, klassifikatsiya usullaridan foydalanildi. Modellarni aniqlash va bayon etishda komponentli tahlil ususlaridan keng foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Vyetnam tilidagi hisob so‘zlar vyetnam tili leksik qatlaming uzoq tarixiy taraqqiyoti natijasida shakllangan bo‘lib, ular tarixiy taraqqiyot davomida ma’lum o‘zgarishlarga uchrab, xilma-xil xususiyatlarga ega bo‘lib borgan.

Zamonaviy Vyvetnam tilida **cái [kai]** va **con [kon]** hisob so‘zları ma’lum xususiyatlар asosida otlarni tasniflash uchun ishlataladigan maxsus so‘zlar bo‘lib, vyetnam tilida ot so‘z turkumi tarkibida o‘rganiladi.

Vyvetnam tilida ko‘p uchraydigan **cái [kai]** va **con [kon]** hisob so‘zlarining tadqiqini amalga oshirish uchun quyidagilar vazifa qilib belgilandi:

- **cái [kai]** va **con [kon]** hisob so‘zlariga berilgan ta’riflarni o‘rganish, qo‘llanilish sohalarini aniqlash, qiyosiy tahlilini amalga oshirish;

- **cái [kai]** va **con [kon]** hisob so‘zlarining asosiy xususiyatlari tadqiqi amalga oshirilib, bir-biri bilan solishtirish;

- **cái [kai]** va **con [kon]** hisob so‘zlarining jonli, jonsiz narsalarni ko‘rsatishdagi maxsus jihatlari o‘rganilib, o‘xshash va farqli tomonlarini ajratib ko‘rsatish;

- **cái [kai]** va **con [kon]** hisob so‘zlarining qo‘llanilishidagi istisnoli holatlarni aniqlash va o‘zbek tilidagi muqobilini berish;

- **cái [kai]** va **con [kon]** hisob so‘zlarining grammatik xususiyatlarini ifodalanishi yuzasidan xulosalar berish.

Cái [kai] - so‘zi “*dona*” deb, - tarjima qilinib, donalab sanash mumkin bo‘lgan narsalarni k‘orsatish ma’nosini ifodalaydi. [1.69.]

Masalan: cái bàn - stol; cái nhà - uy; cái rang -tish;...

Ot so‘z turkumidagi bir so‘z, turli hisob so‘zlar bilan kela olishi, mazkur bog‘lanib kelayotgan otni uning shakl va hajm jihatrini ta’kidlash orqali aniqroq va jonliroq ifodalanishida katta ahamiyatga ega.

Bunda ma‘lum bir ot so‘zi bilan aynan **cái [kai]** emas, boshqa bir hisob so‘zining qo‘llanishi, ot so‘zini tasniflashdagi mazmuniga tasir etishi mumkinligi o‘rganildi. Qo‘llanilayotgan hisob so‘zi yordamida biz matnda (nutqda) qandaydir/biror mavhumlikka oydinlik kiritishimiz, yaqqol tushunishimiz yoki tasavvur qilishimiz mumkin (qo‘llanilayotgan hisob so‘zi o‘zidan keyin kelayotgan ot so‘zining mazmuni, shakl-shamoyili, ko‘rinishiga oid mohiyatiga taaluqli bo‘lishi mumkin). Masalan:

Cái rǎng cái tóc là gót con người¹ - Sochlar va tishlar insonning ko‘miridir. [13].

Bu misolda **cái [kai]** hisob so‘zi ikki marta qo‘llanilib, har ikkala o‘rinda alohida mazmunda keladi.

Birinchi o‘rinda qo‘llanilgan **cái [kai]** so‘zi donalab sanash mumkin bo‘lgan narsalarni k‘orsatish ma’nosini ifodalaydi. Misol uchun: **rang** – “**tish**” deb tarjima qilinib, **rang** - **tish** so‘zidan avval **cái [kai]** hisob so‘zining qo‘llanishi, donalab sanash mumkib bo‘lgan hamda hisob so‘zidan avval ma‘lum bir son kelishi mumkinligini bildiradi. Quyidagi misolda **cái [kai]** hisob so‘zining aynan son bilan birikib kelganligini ko‘rish mumkin:

Rǎng người chính xác có 32 cái rǎng, tuy nhiên không phải ở người nào số rǎng cũng đủ 32 cái, có thể thừa hoặc thiếu – Insonlarda aynan 32 ta (32 dona) tish bor, ammo hamma ham 32 tishga ega emas va ortiqcha yoki yetishmayotgan tishlarga ega bo‘lishi mumkin. [17]

¹ **Izoh:** Vietnamda "tishlar va sochlar insonniн 14g ko‘miridir" degan naql bor. Sochlar qanchalik qora va qalin bo‘lsa, shunchalik sog‘lom ekanlikni bildirgani kabi, o‘tmishda vyetnamliklarda qora tishlar ham sochlardan kam bo‘lmagan e‘tiborga loyiq bo‘lgan. Vyetnamliklar maxsus mevadan olinadigan boyoq yordamida tishlarni qoraytirishgan. Qora sochlar va tishlar kishilarning sog‘lom ekanligini bildiruvchi belgilardan (biri) hisoblangan. Ko‘mir esa, tabiiy boylik sanalib, yuqoridaq ikki salomatlik belgisi majoziy ma’noda ko‘mirga tenglashtirilib, insonni qanchalik sog‘lom korinishga ega ekanligini bildirgan. Góc so‘zi “qism” ma’nosini ham anglatib, “Tish va soch insonning qismi (mihim tana azosi sifatida)” sifatida ham tushinish mumkin.

Qo‘shimcha ma‘lumot: Tishlarni bo‘yash - Janubi-Sharqiy Osiyo va Okeaniya madaniyatlarining qadimiy odatlardan biri, ayniqsa avstroneziya tillari oilasi, avstroosiyon tillari oilasi va kra-day tillari oilasi xalqlari orasida. Bu amaliyot Yaponiyada Meydzi davridan oldin ham, Hindistonda ham paydo bo‘lgan. Bundan tashqari, tish bo‘yash odati Amerika qit‘asidagi ba’zi etnik guruuhlar, ayniqsa Peru shimoli va Ekvadorning shuar xalqi orasida ham qo‘llanilgan. Vyetnam uchun, Kin xalqidan tashqari, Nung, Si La, Tay va Dao kabi boshqa etnik guruuhlar ham shunday odatga ega bo‘lgan. Ammo har bir joy va har bir etnik guruuh estetikasi, sog‘lig‘i va bo‘yash paytida ishlataladigan materiallarni jihatidan tishlarni bo‘yashning turli usullariga ega bo‘lgan. Bu amaliyot Janubi-Sharqiy Osiyo va Okeaniyadagi ayrim yakkalangan etnik guruuhlarda saqlanib qolgan, ammo mustamlaka davrida G‘arbiy go‘zallik standartlari joriy etilgandan so‘ng deyarli yo‘q bo‘lib ketgan va Xitoy, Tinch okeani orollari va Janubi-Sharqiy Osiyodagi ko‘plab etnik ozchiliklarda davom etgan. Bu asosan keksa ayollar orasida mashhurdir.

Ikkinchı o'rinda qo'llanilayotgan **cái [kai]** so'zi ozidan keyin kelayotgan ot so'zi, ya'ni "soch" uzun va ingichka xususiyatga ega bo'lib, **cái [kai]** uzun va ingichka xususiyatga ega bo'lgan narsalar oldidan kelishi mumkinligini bildiradi.

Yuqoridagi misoldan **cái [kai]** so'zi kelgan har ikkala so'z ot so'z turkumiga mansub ekanligi, biri donalan sanaladigan narsa, ikkinchisi esa, shakl-shamoyiliga ko'ra uzun va ingichka ko'rinish va sifatga ega ekanligiga ishora qiladi.

Vyetnamcha-Ruscha lug'atda **cái [kai]** so'ziga ta'rif berilayotgan **cái kién** - "chumoli" so'zini ham uchratdik. [1.69.]. Vyvetnam tili va garammatikasiga oid manbalarda hayvonlarni ko'rsatishda con [kon] hisob so'zidan foydalanilishi bayon etiladi.

Con [kon] so'zining tub ma'nosi "bola", - deb tarjima qilinib, hayvonlar, ayrim jonsiz narsalarni ko'rsatuvchi so'z sifatida qaraladi. [1. 132-133.]

Cái [kai] va **con [kon]** hisob so'zleri narsa va buyumlarni harakterlab, sinflarga ajratadi. Ular asosiy otlarning semantik xususiyatlari va buyumlarning holatiga asosan tanlanadi. Tanlangan hisob so'z o'z o'rnida matn mazmuniga bog'liq bo'lib, narsa-buyumning qay holatda tasvirlanishiga ko'ra ifodalanadi. Ba'zan hisob so'zi o'zi yolg'iz kelsa, ma'lum bir o'ziga xos ma'no anglatmasligi mumkin. Bu holat **cái [kai]** hisob so'zida kuzatiladi, ya'ni **cái [kai]** tub ma'noga ega emas, biroq **con [kon]** tub ma'noga ega bo'lganligi uchun har doim ham mavhumlik kuzatilmaydi.

Bu haqda "Vyvetnam tilida "con" (kon) hisob so'zining semantik maydoni" mavzusidagi maqolada bayon qilingan. [7].

Hisob so'zi vazifasida kelayotgan so'z odatda doimo o'zidan keyin ot bilan birga kelishi zarur hisoblanadi. Matnda ma'lum bir hisob so'zi ot so'zi bilan emas, yolg'iz kelsa so'zlovchining maqsadi tushunarsiz bo'lib qolaveradi. Bu holat bir qator savollarni yuzaga kelishiga zamin yaratadi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, har ikkala hisob so'zining tabiatiga ko'ra ishlatalish o'rniga qarab, qator vazifani bajarishi masalasiga oydinlik kiritildi.

"**Cái**" umumiy standart hisob so'zi bo'lib, quyidagi asosiy hususiyatlarni o'zida namoyon qiladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, **cái [kai]** hisob so'zi ayrim jonli narsalarni ko'rsatishda ham qo'llaniladi. Bunda "narsa, ...ta, dona" ma'nolaridan farqli ravishda "**con**" – "bola/farzand" so'ziga qo'shilib, bu farzandning qiz/ayol jinsiga tegishligini ifodalaydi. Bu yerda **cái [kai]** so'zining aslida gapdag'i tarjimasi va qo'llanilish mohiyatiga to'xtalamiz. Mazkur **cái [kai]** so'zi Nguyễn Ngọc San, Đinh Văn Thiệnlarning "Từ điển Tiếng Việt cỏ" – "Qadimgi Vietnam lug'ati"da hamda Vương Lộc ning "Từ điển từ cỏ" – "Qadimgi so'zlar lug'ati"da "**me**", ya'ni "**ona**" hamda "ayol", "yuksak" ma'nolarida qo'llnilganligi qayd etiladi. [10]. Shu nuqtai-

nazardan bugungi kundagi ayrim so‘zlarda *cái* ning tarixiy ma’nosini o‘zi ergashayotgan so‘zga qisman bog‘langan holda qo‘llnilishini kuzatish mumkin. Masalan: *con cái* - “bolalar”.

Giáo dục *con cái* thời hiện đại – những điều ba mẹ cần biết 4.0 - Zamonaviy bolalar ta’limi - ota-onalar bilishi kerak narsalar. [9].

Keltirilgan misol, zamonaviy nashrlarda chop etilgan bo‘lib, bugungi kunda ham *cái* [*kai*] hisob so‘zining tarixiy ma’nosini butunlay yoqotmagan holda qo‘llanilib kelinayotganligini guvohi bo‘lamiz.²

Professor **Nguyễn Đức Dân** ning “*Loại từ con và cái*” maqolasida Avloddan avlodga o‘tib kelayotgan “*Ca dao*” - “*Xalq qo’shiqlari*” da *cái* [*kai*] hisob so‘zi “*con của cái*” ga o‘xshash jumlalarda tez-tez uchrab turadi. Bunda *cái* [*kai*] aynan “ona” ma’nosida kelib, “*con của cái*” - “*onaning bolasi*” ma’noni ifodalaydi.

Giáo dục *con cái* thời hiện đại – những điều ba mẹ cần biết 4.0 - Zamonaviy bolalar ta’limi - ota-onalar bilishi kerak narsalar. [9].

Bu misolda “*con*” va “*cái*” o‘rtasidagi “*của*” - “*ning*” tegishlilikni iffodalovchi qo‘shimcha tushirib qoldirilgan bo‘lib, ko‘plik ma’nosini ifodalovchi “bolalar”ga o‘zgargan.

Bugungi kunda zamonaviy vyetnam tili lug‘atlarida *cái* [*kai*] so‘zi yuqoridagi mazmunda, “ona” mazmunida uchramaydi, balki zamonaviy vyetnam tilida muomalada qo‘llanilmaydigan eskirgan so‘z ekanligi ta‘kidlanadi. [1.133.]. Ba’zan “con” hisob so‘zi bilan o‘rin almashishi mumkin. M.: *con chó* - “it” neytral ma’no ifodalangan va *cái con chó* - “it”. Bu yerda *cái* ning qo‘llanishi orqali aynan “it” hayvon haqida emas, kamsitish, tahqirlsh, so‘kish ma’nosini “it”, “kuchuk”ni ifodalaydi. [11].

Lug‘at kartotekasi amalga oshirilganda *con* [*kon*] so‘zi ham *cái* [*kai*] singari kamsitish ma’nosini beruvchi so‘z sifatida qo‘llanishi mumkinligi aniqlandi. [1. 132-133.]. Con mü gây gỗ - “jodugar”, “shallaqi”, con đĩ - “behayo”, con chó cái.....

Shuningdek, ajratish, ta’kidlash, urg‘u berish ma’nosida ham kelib, bu holatda *cái* ham hisob so‘zi vazifasida ham urg‘u erish, ta’kidlash vazifasini o‘zida namoyon etadi. *Cái áo này đẹp quá!* [1.18.] - “*Bu ko‘ylak juda chiroyli!*”. Áo - “ko‘ylak”, “kiyim” so‘zi oldida kelib, sun’iy ob’ekt, ya’ni sun’iy ravishda odamlar tomonidan yaratilgan narsani hamda aniq aynan ko‘ylakning juda chiroyli ekanini ifodalaydi.

² **Izoh:** Qadim vyetnam tilida *cái* [*kai*] so‘zi - “ona” ma’nosini ifodalagan. “*Ca dao*” da keltirilgan parchadagi “*con của cái*” jumlasida *cái* [*kai*] aynan “ona” ma’nosini ifodalaydi. Ma’lumot uchun. “*Ca dao*” - *Xalq qo’shiqlari* - Vietnam xalq she’riyati og‘zaki ravishda ma’lum bir ritmsiz qo‘shiqlar shaklida uzatiladi, ko‘pincha oson yodlash uchun olti-sakkiz misra shaklida mashhur. *Ca dao* - Xitoy-Vietnam so‘zi. Etimologik jihatdan ca - boblar va ohanglarga ega qo‘shiq; *Dao* qisqa qo‘shiq bo‘lib, ohangsiz va she’rsiz. Từ điển Việt - Nga. HN.,2002. Tr.67.; <https://www.twinkl.com/teaching-wiki/ca-dao-la-gi>

Yoki bugungi kunda lug'atda uchraydigan "nhà tôi" so'zini ikki xil tarjima qilish mumkin: 1) **nhà tôi** - "mening uyim" ya'ni "men egalik qiladigan uy" va 2) **nhà tôi** - "mening turmush o'rtog'im (mening ayolim yoki ho'jayinim)" ma'nolarida.[1.460]. Agar gapda **nhà tôi** - so'zidan oldin **cái** qo'yilib, **cái nhà tôi** - deyilsa, ikkilanishlarsiz bunda bu narsa aniq uy, bino ekanligi tushiniladi. Xuddi shunday "**ông áy có mèo**", - deyilganda "**uning mushugi bor**", - degan ma'noda tarjima qilinadi, lekin mushuk hayvon yoki o'ynichoq ekanligi mavhum bo'ladi, biroq **con [kon]** hisob so'zining **mèo** so'zi oldidan qo'llanishi natijasida "**ông áy có con mèo**" - "**uning mushugi bor**", - deb tarjima qilinadi va aynan mushuk - uy hayvoni tushiniladi. [15].

Cái [kai] va **con [kon]** uchun berilgan misollarning ikkalasidan ham hisob so'zi vazifasini saqlab qolgan holda, ta'kidlash, urg'u berish ma'nosini ifodalamoqda.

Con [kon] hisob so'zi esa, asosan jonzotlar(hayvonlar)ga: **con gà-tovuq/xo'roz**", **con chim** - "qush", **con bò** - "sigir", **con mèo** "mushuk"..., bundan tashqari tirik mavjutlarning eng yoshiga: **một con bé** - mitti/kichkina qizaloq; **con trai** - "o'g'l (farzand)", **con gái** - "qiz (farzand)", afsonaviy (mifologik) mahluqotlar: **con rồng** - "ajdarho", **con ma** - "ruh", **con quỷ** - "shayton" kabilar bo'lib, hamda tabiiy hodisalarni ko'rsatuvchi hisob so'zi vazifasida quyidagilarni namoyon qiladi:

Con [kon] so'zining tub ma'nosini "bola" ma'nosini anglatadi. Jinsni ajratuvchi morfema (gái - "qiz", trai - "yigit, o'gil bola")lar qo'shilishi natijasida "qiz farzand" yoki "o'gil farzand" mazmuniga o'zgaradi. Bolalar, ba'zan kattalar uchun qo'llaniladigan hisob so'z sifatida (aksariyat erkalash, kichraytirish ma'nolarini ifodalovchi) namoyon bo'ladi . M.: **con bé** - "bolacha"; **con trai** - "og'l farzand" va b.l. [1.133.].

Vyetnamshunos olimlarning hisob so'zlarga oid izlanishlarida Vyvetnam tilida hayvonlar, qurt-qumursqalar uchun alohida hisob so'zlar mavjudligi haqida fikr bayon qilinmaydi, barcha turdag'i hayvonlar uchun "con" [kon] hisob so'zi qo'llanilishi bildiriladi. M.: **con chó** - "it", "kuchuk"; **con mèo** - "mushuk" , **con cá** - "baliq" va b.l. [3. 117-126].

Quyida beriladigan misoldan **con [con]** so'zi hayvonlar uchun qo'llaniladigan yagona hisob so'zi emasligi ma'lum bo'ladi. Ya'ni, **cái [kai]** hisob so'zining yana bir jihat bilan tanishamiz. Lug'at kartotekasi amalga oshirilganda **cái [kai]** hisob so'zining jonli mavjudotlarning kichik turlari, ya'ni hashorotlarni tasniflasgda ham foydalanish mumkinligi aniqlandi. Masalan: **cái kién** - "chumoli"; **cái ong** - "ari" [1.497.].

Bundan tashqari, harakatlanuvchi yoki dinamik sifatiga ega bo'lgan tabiiy hodisalarni ko'rsatishda qo'llanilishi ma'lum bo'di. Bu harakat sokinlik holatiga

tegishli bo'lib, tabiiy ofat sabab harakatga keluvchi tabiiy hodisalarga nisbatan boshqa hisob so'zlar qo'llanilishi ayon bo'ldi. M.: *con sông* - "daryo", *con đường* - "yo'l", *con sóng* - "to'lqin", va harakatlanuvchi jonsiz narsalarni ko'rsatishda qo'llaniladi. M.: **con thuyền** - "qayiq", **con dao** - "pichoq" va b.l. [16].

Con [kon] hisob so'zi bo'yicha amalga oshirilgan lug'at kortoteasida mazkur hisob so'zni tananing ma'lum bir qismlarini ko'rsatishda qo'llanilishi ayon bo'ldi. M.: **con măt** - "ko'z (bir donasi)", **con tim** - "yurak" va b.l. [3.137-138].

Shuningdek, **con [kon]** hisob so'zi quyidagi maxsus xususiyatlarga ega ekanligini ko'rish mumkin. Ya'ni odamlarga murojaat qilganda mehr, erkalash, kichraytirish ma'nosida. M.: **con yêu mẹ** - (so'zma-so'z tarjima: bola yaxshi ko'radi ona) - "oyi sizni yaxshi koraman", deb farzand tomonidan bildirilayotgn munosabat.

Maqola mavzusidan kelib chiqib, har ikkala hisob so'zlarning o'xshash, farqli tomonlari o'rganildi va bor qator istisnoli holatlarnng mavjudligi quyidagilarda ko'rindi.

Vyetnam tilidagi ba'zi otlar har ikkala hisob so'zi bilan ham qo'llanilishi mumkinligi, faqat mohiyatan farqlanishi kuzatildi:

Cái [kai] hisob so'zi	Con [con] hisob so'zi
cái dao [16] - "pichoq" buyum sifatida	con dao - "pichoq" ishlataladigan asbob sifatida
cái măt - "ko'z" umumiyl ma'noda tana a'zosi sifatida	con măt - "ko'z" ekspressiv xususiyat sifatida (ko'zning bittasi)
jonli mavjudotlarning kichik turlariga nisbatan qo'llaniladigan hisob so'zi	Yirik va mayda turdagı barcha (uy, yovvoyi) hayvonlarni ko'rsatishda qo'llaniladigan hisob so'zi
Shaxsga nisbatan qo'llaniladi. Qadimgi vvetnam tilida cái [kai] hisob so'zi ayol jinsini ko'rsatishda ham qo'llanilgan. Bu so'z " con " - "bola/farzand" so'ziga qo'shilib, bu farzandning qiz/ayol jinsiga tegishligini ifodalaydi.	Shaxsga nisbatan qo'llaniladi. Jinsni ajratuvchi morfema (gái - "qiz", trai - "yigit, o'gil bola")lar qo'shilishi natijasida "qiz farzand" yoki "o'gil farzand" mazmuniga o'zgaradi. M.: con bé - "bolacha"; con trai - "og'l farzand" va b.l.

Cái va Con hisob so'zlarining grammatik xususiyatlari o'rganilib, quyidagi modellar aniqlandi.

Hisob so'zlar avvlo otlar bilan birikib, ot so'zini tasniflab keladi. Shuningdek, son bilan birikib, "...ta; dona" ma'nosini ifodalaydi. Masalan: **một cái bàn** - "bitta stol", **hai con chó** - "ikkita kuchuk" va.b.l. [3.134.]

"Bu" olmoshining kelib chiqishi turli tillarda kuzatilishi mumkin, ammo Vyvetnam tilida u grammatika va muloqotning ajralmas qismiga aylandir. Vyvetnam tilida "bu" shunchaki ko'rsatish olmoshi emas, balki so'zlovchining diqqatini va ular

nazarda tutayotgan ob'ektga qiziqishini ko'rsatadigan ekspressiv ma'noga ega.
[3.137-138.]

“*Này*” - “*bu*” ko'rsatish olmoshi “*cái/con*” bilan birikib, o'ziga xos xususiyati ifodalaydi, ko'pincha ob'ektni yanada aniqlashtirish uchun otlar bilan birga keladi. Masalan: “*Cái này là quyền sách tôi đã đọc*” - “*Bu men o'qigan kitob*” yoki “*Cái này rất đẹp*” - “*Bu juda chiroyli*”. Ushbu jumlalarda “*bu*” tinglovchiga ma'ruzachi nazarda tutayotgan ob'ekt ma'lum bir kitob yoki muayyan ob'ekt ekanligini tushunishni osonlashtiradi. Ya'ni hisob so'zining mavjudligi, so'zlovchi qandaydir bir kitob haqida emas, balki o'qigan kitobini ko'rsatib, aniq qilib bayon etzyotganligi tushiniladi. Huddi shunday, yuqorida “*mèo*” bilan berilgan misol fikrimizning isboti bo'la oladi. Ya'ni: “*ông ấy có mèo*”, - deyilganda “*uning mushugi bor*”, - mushuk hayvon yoki o'yinchoq ekanligi mavhum; “*ông ấy có con mèo*” - “*uning mushugi bor*”, - deb tarjima qilinadi va aynan mushuk - uy hayvoni tushiniladi. [15].

Bundan tashqari, ta'kidlash, urg'u berish yoki ko'plikda ifodalash uchun boshqa hisob so'zlar bilan birikishi mumkin. Masalan: *Những cái cây* [14] - “*aksariyat daraxtlar*”; *các (mấy) con chim* [12] - “*hamma (bir necha) qushlar*” va.b.l. Jumladan “Hisob so'z + hisob so'z+ot+ko'rsatish olmoshi” modelida ifodalaydi.

Yuqoridagi misollardan ko'rish mukinki, har ikkala hosob so'zları tilda mavjud ko'rsatish olmoshlari bilan birikib ma'noni aniq ifodalashda muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, izlanishlar davomida, *cái [kai]* hisob so'zining sanoq sonlar bilan qo'llanib, harakatning son bildirgan miqdordagi takrorini ifodalashda ham qo'llanilishi mumkinligi namoyon bo'ldi. Misol uchun *cái [kai]* hisob so'zi son va ot so'zi o'rtasida kelib, harakat miqdorini ifodalaydi.

Masalan:

“*dánh một cái*” [1.69.] – “*bir marta urish*”

“*Tát cho mấy cái*” [8] – “*yuziga bir necha tarsaki tushiring*”

Har ikkala misolda ham cái [kai] hisob so'zi son va ot so'zi o'rtasida kelib, *[son+hisob so'zi+ot]* modelini yasaydi va songa o'lchashda ko'maklashuvchi so'zlar hisoblanadi va ular o'zidan keyin kelayotgan otni o'zgartirmagan holda, mazkur ot so'zlarini tasniflash..., shuningdek o'lchov va harakatning miqdorini anglatuvchi so'zlar sifatida qo'llaniladi.

Chắc cậu muốn ngó qua nó một cái – Balki siz buni bir marta ko'rib chiqmoqchidirsiz.

Đánh một cái khién một người chết *Bir zarba bir kishini o'ldiradi* [8].

Yoki:

Này ông Healy, ông ngó xem cái này không? Hey, janob Xili, buni ko'rib chiqasizmi? (bu narsaga bir razm solasizmi?)

Bu misolda huddi yuqoridagi kabi *[son+hisob so‘zi+ot]* modelli tarkibda kelib, son tushirib qoldirilgan va *cái [kai]* hisob so‘zi harakatning miqdorini ko`rsatyapti.

Yuqoridagilardan tashqari, *cái [kai]* hisob so‘zi *chiếc* va *con* kabi hisob so‘zlari bilan o‘rin almashganda ma’noda keskin o‘zgarishlar yuzaga kelmaydi, tarjimada ham alohida ko‘rinishlarda tarjima qilinmaydi.

- *bón cái bánh* – “to ‘rtta to ‘rt (biskvit keks)”
- *bón chiếc bánh* – “to ‘rtta tort(biskvit keks)”

Yoki:

- *một cái suối nước* – “bitta buloq”
- *một con suối nước* – “bitta buloq”³

Bu misolda ham huddi yuqoridagi kabi [son+hisob so‘zi+ot] modelli tarkibda kelib, *cái [kai]* hisob so‘zi *chiếc* va *con* kabi hisob so‘zlari bilan o‘rin almashdi, biroq ma’noga ta’sir qilmadi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida quyidagilarni keltirish mumkin.

Yuqoridagi ko‘rib chiqlgan fikrlardan kelib chiqib, vyetnam tilidagi hosob so‘zlearning faol qo‘llanishi, gapda muhim o‘rin egallashi o‘ziga xos mazmun kasb etar ekan.

- *Cái [kai]* vyetnam tilida ko‘p qo‘llaniladigan standart hisob so‘z vazifasini bajaradadi;

- Jonsiz narsalarni ko‘rsatishda qo‘llanilib, “*narsa, ...ta, dona*” ma’nolarini anglatadi: M.: *cái bàn* - “*stol*”, *cái ghé* - “*stul*”, *cái chén* “*payola*” v.b.l.

- Sun’iy ob’ektlar, ya’ni sun’iy ravishda odamlar tomonidan yaratilgan, o‘zgartirilgan yoki foydalilanadigan narsalar uchun qo‘llaniladigan hisob so‘z: M.: *cái dao* - “*picho*”, *cái xe* “*avtomobil/mashina*”, *cái điện thoại* - “*telefon*” va b.l.

- Ayrim mavhum otlar uchun qo‘llaniladigan hisob so‘z: M.: *cái tên* - “*ism*”, *cái chét* - “*o‘lim*” va b.l.

- Har ikkala hosob so‘z ko‘rsatish olmoshlari bilan birikadi. M.: *cái này* - “*bu*”, “*bu narsa*”; *con kia* - “*ana u hayvon*” va.b.l.

- Har ikkala hosob so‘z [son + h.s.+ot] moduli orqali ifodalanadi. M.: *một cái bàn* - “*bitta stol*”, *hai con chó* - “*ikkita kuchuk*” va.b.l.

- Ta’kidlash, urg‘u berish yoki ko‘plikda ifodalash uchun boshqa hisob so‘zlar bilan birikishi mumkin. M.: *Những cái cây* - “*aksariyat daraxtlar*”; *các (mấy) con chim* - “*hamma (bir necha) qushlar*” va.b.l. Jumladan “Hisob so‘z + hisob so‘z+ot+ko‘rsatish olmoshi” modelida ifodalaydi.

³ Go-Le-Bô-Va I.I., Xô-Cô-Lôp A.A. Từ Điển Việt - Nga Hà Nội – 2003. Tr.69

Vyetnam tilida hisob so‘zlar bilan bog‘liq gaplarni tuzishda hisob so‘zlarning turkumlarga ajratilmaganligi, uning bilan bog‘liq aniq qoida va ta’riflar mavjud emasligi, bu o‘rinda hisob so‘zlarning qo‘llanilashida istisnoli holatlarning mavjudligi ko‘zga tashlanadi. Bu holatlar vyetnam tili grammatikasining bugungi kun nuqtai-nazaridan to‘liq o‘rganilmaganligi haqidagi fikrga olib keladi.

ADABIYOTLAR

1. Gõ-Le-Bô-Va I.I., Xô-Cô-Lốp A.A. Từ Điển Việt - Nga. [Vyetnamcha-Ruscha lug‘at]. Văn hóa thông tin. Hà Nội – 2003. Tr. – 792.
2. Karimov A.A. Xitoy tilidagi hisob so‘zlar. “Fan va texnologiyalar markazining bosmaxonasi”. 2003. – бет 119.
3. Nguyễn Hữu Quỳnh. Ngữ pháp Tiếng việt. [Vyetnam tili grammatikasi.] NXB Từ Điển Bách khoa. Hà Nội – 2007. Tr. – 271.
4. Nguyễn Tài Cẩn. NGỮ PHÁP TIẾNG VIỆT: Tiếng – Từ ghép – Đoàn ngữ. [VYETNAM TILI GRAMMATIKASI: Bo‘g‘in – Murakkab so‘z – So‘z birikmalari]NXB Đại học và Trung học chuyên nghiệp. Hà Nội – 1977. Tr. – 397.
5. Nguyễn, Tài Cẩn. (1975). Từ loại danh từ trong tiếng Việt hiện đại [Zamonaviy vyetnam tilida so‘z turkumlari]. Khoa học Xã hội. Hà Nội – 1975. Tr. – 299.

Jurnallar:

6. D.M.Qodirova. Vyvetnam tilida harakat hisob so‘zlari. “Uzoq shar va Janibiy Osiyo” ilmiy to‘plami. “Obod turmush yili”ga bag‘ishlangan. Toshkent, 2013 yil. B. 83–87.
7. D.M. Qodirova. Vyvetnam tilida “con” (kon) hisob so‘zining semantik maydoni. Sharqshunoslar anjumanı. (Ilmiy amaliy pedagogic kadrlar tayyorlash bo‘limi nashri). Toshkent, 2009 yil. B. 29–34.

Vebsayt

8. Bệnh dượng, cháu trai ra tay đánh một cái khiến một người chết [Amakisini himoya qilib, jiyan bir urib odam o‘ldirdi” mavzusida Eksperimental xizmat loyihasidan parcha. <https://thanhnien.vn/hy-huu-benh-duong-chau-trai-ra-tay-danh-mot-cai-khien-mot-nguoi-chet-1851256223.htm>
9. Bình Phạm. Giáo dục *con cái* thời hiện đại – những điều ba mẹ cần biết 4.0. [Binh Phamning “Zamonaviy bolalar ta’limi - ota-onalar bilishi kerak narsalar” nomi ostida nashr qilingan maqolasi. 18.08.2022). <https://sununijunior.edu.vn/giao-duc-con-cai-thoi-hien-dai-4-0-nhung-dieu-ba-me-can-biet/>
10. Ca dao tục ngữ - Từ điển ca dao tục ngữ Việt Nam Tuyển tập 200 câu tục ngữ về quan hệ gia đình. [Xalq qo’shiqlari va maqollari - Vietnam xalq qo’shiqlari va

maqollari lug‘ati Oilaviy munosabatlar haqida 200 ta maqol to‘plami”.
<https://loigiaihay.com/y-nghia-cau-tuc-ngu-con-dai-cai-mang-a146103.html>

11. Hình ảnh con chó trong thành ngữ, tục ngữ Việt Nam [Vietnam iboralari va maqollarida it tasviri]. <http://vinhphuctv.vn/Qu%E1%BA%A3n-tr%E1%BB%8B/Tin-t%C3%A1c-chung/ID/253605/Hinh-anh-con-cho-trong-thanh-ngu-tuc-ngu-Viet-Nam>

12. Hình tượng loài chim trong văn hóa - “Madaniyatda qushlar tasvirlari” mavzuidagi maqola.

https://vi.wikipedia.org/wiki/H%C3%ACnh_t%C6%B0%E1%BB%A3ng_lo%C3%A1i_chim_trong_v%C4%83n_h%C3%BD

13. Phân tích câu tục ngữ “Cái răng cái tóc là góc con người” [Soch va tish - insonning tana qismi] maqolining tahlil qilish. <https://loigiaihay.com/phan-tich-cau-tuc-ngu-cai-rang-cai-toc-la-goc-con-nguo-i-a123536.html>

14. Thu Hoài. Hãy “Sông như những cái cây” [“Daraxtlar kabi yashaylik”] maziudagi maqola. “Yoshar” gazetasi: “Madaniyat” bo‘limi..
<https://thanhnien.vn/hay-song-nhu-nhung-cai-cay-1851025443.htm>

15. Nguyễn Hưng Quốc ning shaxsiy sayti. Tiếng Việt: Cái và Con.
<https://www.voatiengviet.com/a/cai-va-con-05-11-2010-93436379/863577.html>

16. Từ điển Hán Nôm. Phần ba nét: 刀. TR. 196. [Xitoyxha-Milliy Yozuv: Nom. 刀 bo‘limi. 196-bet.] [https://archive.org/details/tu-dien-hu-tu-han-ngu-co-dai-va-hien-dai-tran-van-chanh/page/n2\(mode/1up?view=theater](https://archive.org/details/tu-dien-hu-tu-han-ngu-co-dai-va-hien-dai-tran-van-chanh/page/n2(mode/1up?view=theater)

17. VINMEC International hospital saytining Sức khoẻ tổng hợp [Har tomonlama salomatlik] b‘limida nashr qilingan “Răng người có bao nhiêu loại và bao nhiêu chiếc?” [Insoniyatda nechta va necha tur tishlar mavjud?] mavzusidagi maqola.
<https://www.vinmec.com/vie/bai-viet/rang-nguo-i-co-bao-nhieu-loai-va-bao-nhieu-chiec-vi>